

# МЕҲНАТ ВА КАСБ ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Республика илмий-амалий анжумани



Бухоро – 2019

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МЕҲНАТ ВА КАСБ ТАЪЛИМИ  
ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ  
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ  
ШАКЛЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН  
ЁНДАШУВЛАР**

**Республика илмий-амалий анжумани  
материаллари тўплами**

**2019 йил 17 май**

**Бухоро – 2019**

**“Меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантиришда инновацион ёндашувлар” Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами (2019-йил 17 май), Бухоро - 2019.**

**“Меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантиришда инновацион ёндашувлар” Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўпламига илмий тадқиқот ишлари олиб бораётган изланувчилар ва тадқиқотчилар, профессор-ўқитувчилар, магистрлар ҳамда талабаларнинг илмий ишлари киритилган.**

Ушбу илмий-амалий анжуманнинг асосий мақсади таълимнинг узвийлигини ва узлуксизлиги таъминлаш, меҳнат ва касб таълими ўқитувчиларининг касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш ҳамда шакллантиришда инновацион ёндашувлар мазмунини ўқув жараёнини модернизациялаш масалалари, таълим жараёнини сифатли ташкил этиш, олий таълим муассасаларининг моддий техник базасини ривожлантириш, таълим турлари ўртасидаги интеграция жараёнларини жадаллаштириш, умумий ўрта таълим муассасаларида “Технология” фанини ўқитишда инновацион таълим технологияларидан фойдаланишнинг устувор йўналишларини белгилаш борасида эришилган ютуқларни ёритиш ва муаммолар ечимини топиш, шунингдек, таълим тизимидаги ҳамкорлик борасида фикр алмашиш, мушоҳада юритиш, илмий-амалий тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборатдир.

Анжуман материалларидан профессор-ўқитувчилар, илмий изланувчилар, тадқиқотчилар ҳамда талабалар фойдаланишлари мумкин.

#### **Ташкилий қўмита:**

1. О.Х. Хамидов университет ректори, раис;
2. О.С. Қаххоров илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини;
3. О.Ҳ. Раҳимов Молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо;
4. С.Қ. Қаххоров Физика кафедраси профессори, аъзо;
5. Г.Т. Зарипов И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо;
6. Э.М. Мухторов Педагогика факультети декани, аъзо;
7. Ш.Ш. Олимов Педагогика кафедраси мудир, аъзо;
8. Ш.Ҳ. Қулиева Меҳнат таълими кафедраси мудир, аъзо;
9. Ҳ.О. Жўраев Меҳнат таълими кафедраси доценти, аъзо;
10. А.А. Тўраев Меҳнат таълими кафедраси катта ўқитувчиси PhD, котиб.
11. Ю.Ю. Жамилов Меҳнат таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо;

#### **Маъул муҳаррир:**

**А.А. Тураев** “Меҳнат таълими” кафедраси катта ўқитувчиси, ф.-м.ф.ф.д. (PhD)  
**Ю.Ю. Жамилов** “Меҳнат таълими” кафедраси ўқитувчиси

#### **Тақризчилар:**

**Б. Р. Адизов** педагогика фанлари доктори, профессор.  
**Ш.Ш. Олимов** педагогика фанлари доктори, доцент.

Мазкур тўпламга киритилган материалларнинг илмий савияси мазмуни ва уларнинг ҳаққонийлигига муаллифлар масъулдир.

Бухоро давлат университети, 2019 й.

бўлсак у пайтда таълим жараёнида ҳам янги сифат томонларини шакллантиришга тўғри келади.

Ҳар қандай билиш жараёни моделнинг у ёки бу турини қўллаш орқали давом этади. Ҳозирги кунда оддийдан тортиб то мураккаб физикавий ходисаларгача ЭҲМ ёрдамида моделлаштирилмоқда. Тадқиқот ўтказишда ҳисоблаш эксперименти вазифасини ўтамоқда, яъни ҳисоб-китобларнинг инсонни зериктирадиган томонларини ўз зиммасига олмақда, тадқиқот жараёнида фаоллаштиришга хизмат қилиб, физикавий эксперимент натижаларини қайта ишламоқда. Оддий кўз билан илғаб олиш мумкин бўлмаган ҳолларда натижалар тўплаб, унинг актуаллигини, сифатини текширишга имкон бермоқда. Энг муҳими физикавий эксперимент ўтказувчининг фаолиятини унумли қилади. Ишлаётган асбоб - ускуналар ёрдамида инсон имкониятини оширади.

Умуман ўқув жараёнида назария ва амалиётни биргаликда ўтказиш яхши натижалар беради, жумладан:

- Дарснинг сифати энг аввало дарснинг мазмунини тўлиқ шакллантиришга ва таълим мақсадига эришиш.

- Ўқитиш тури муаммоли ёки тадқиқотга оид фаоллаштирувчи булиши ҳамда маъруза ҳар бир тингловчида фикрлашни уйғотиши зарур.

- Муаммо элементлари бўлган ижодий фикрлаш дарсига айлантириш, яъни баҳс-бу фаол, қизиқарли, қизгин ва эҳтирос суҳбат бўлиб, унинг иштирокчилари муҳокама қилинаётган масалаларини муфассал тушунишга, билишга диққат эътиборини қаратиши лозим.

- Муаммовий услуб аввалдан мавжуд билимлар асосида мустақил билимлар олиб боришни талаб қилади, ижодий фикрлашни уйғотади.

#### **Фодаланилган адабиётлар:**

1. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз”-Тошкент: “Ўзбекистон” 2017 йил.
2. Бибутов Р. “Амалий механика” Т: Ўқитувчи-2010 йил.
3. Yuldoshev I.A. Ta’limda zamonaviy texnik vosita va texnologiyalar. Toshkent, 2015.-19 b.

## **UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA MEHNAT VA KASB TA’LIMI O’QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**O.N.Muxidova**

*BuxDU “Mehnat ta’limi” kafedrasi o’qituvchisi*

O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturida yoshlarni o’qitish va tarbiyalash ishlarini tubdan yaxshilash masalasi qo’yilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mar-d va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” asarida yoshlarga

zmonaviy bilim berish, mustahkam pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash lozimligi, ularni ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni susaytirmay yangi bosqichga ko'tarish zarurligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish “o'qituvchining innovatsion faoliyati” tushunchasi paydo bo'ldi.

Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashdagi ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Innovatsiya o'quv jarayoniga yangilik olib kirish, o'quv jarayonini o'quvchi ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga harakat qilish demakdir.

Innovatsion texnologiyalarning assosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalashdir.

Ma'lumki, shaxsning xislat va fazilatlari faoliyat ko'rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutolaa qilishga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki yangilik – insonga ulug'vorlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi.

O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik rolini o'taydi. Bu umumiy holda mehnat o'qituvchisiga ham taalluqli. Mehnat ta'limida vaqtning asosiy 30 % qismi o'quvchilarning amaliy ishiga sarf bo'ladi. O'qituvchi hamma narsani oldindan puxna o'ylab yaxshi rejalashnirsagina o'quvchilar mustaqil ishlay oladilar. Bunda o'quvchilarning amaliy ishlarni mustaqil bajarishlari uchun o'qituvchining roli yanada ortadi.

O'qituvchi – o'qituvchi bo'lib tug'ilishi kerak. O'z ishiga qiziqishi bo'lmasa o'qituvchi bo'lib ishlay olmaydi. Mehnat ta'limi o'qituvchisini oliy o'quv yurtlaridagi tayyorgarligi asosli bo'lsa ham u tugallanmagan hisoblanadi. Chunki hozirgi zanmon ishlab chiqarishi juda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mehnat qurollari, texnologik jarayonlar uzluksiz takomillashib bormoqda.

Ular albatta mehnat ta'limida o'z aksini topmoqda. Demak mehnat o'qituvchisi fan va texnika sohasidagi taraqqiyotni uzluksiz kuzatib borishi, ulardan o'quvchilarni tushunarli shaklda xabardor qilib turishi kerak.

O'qituvchilar mehnat ta'limi jarayonida foydalanadigan metodik vositalari ham o'zgarib turadi. Ilg'or o'qituvchilarni yangi formalarini, uzluksiz ravishda malakalarini shakllantirishni yangi usullarini joriy etib borishlari lozim.

Mehnat ta'limi fani o'qituvchisi o'quvchining politexnik dunyoqarashini shakllantirishi, yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar to'g'risida tasavvur uyg'otishi kasb-hunarlar haqida ma'lumot berishi, kasb tanlashga ijodiy yondashishga, mustaqil ishlashga, vaqtdan unumli foydalashish va tejamkorlikka o'rgatishi hamda estetik madaniyatni rivojlantirishi lozim.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchanligi kabi mavzular muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

O'qituvchi pedagogik va kasbiy mahoratini, faqatgina ta'lim oluvchilarning bilim va mahoratlarini baholash va nazorat qilishga emas, balki bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishda, nazariy bilimlarni amalda qo'llashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga yordam berishi va o'quvchilarning faoliyatini tashxis va tahlil qilishi kerak.

O'quv mashg'ulotlarida mehnat ta'limi fani o'qituvchisi o'quvchilarga texnik ma'lumot beradi. Ularda ishlab chiqarish ko'nikmalari, mehnat malakalarini shakllantiradi. O'qituvchining obro'-e'tiborini oshirishda birinchi o'rinda yuqori darajada malakaga ega bo'lishi, o'z fanini yaxshi bilishi har tomonlama o'sish darajasi, ma'naviy bilimdonligi, talabchanligi va xushmuomalaligi qo'yiladi. Uning obro'-e'tibori o'z ishiga sovuqqonligi bilan qarasa, buni o'quvchilar darhol sezadilar. Mehnat o'qituvchisi o'z bilimi va malakalarini yuksak darajada egallashi bilan birga, texnik fanlarni mukammal darajada bilishi va ularni o'quvchilarda ham tarkib toptirishi uchun bilimlar bera olishi kerak. Masalan, 5-6 sinflarda o'quvchilar slesarlik, duradgorlik, tokarlik ishi elementlari va elektrotexnika elementlari bilan tanishadilar. U o'quvchilarni individual xususiyatlarini, tajribasini, jismoniy rivojlanishini va boshqa faktorlarni e'tiborga olib o'quv jarayonini olib boradi. Uning oldida o'quv ishlab chiqarish jamoasini tashkil etish, ular orasida ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirish, mehnat usullarini to'g'ri bajarish, olingan bilimlarni analda qo'llashini nazorat qilish va o'quv natijalarini baholash vazifasi turadi.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mustaqil hayotga, mehnatga tayyorlash, ularga kasb-hunar o'rgatish, mehnat faoliyatida zarur bo'lgan intellektual jismoniy, axloqiy, bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni o'z ichiga qamrab olib, jamoa bilan mehnat qilish asosida o'quvchilar aqliy, estetik jismoniy rivojlanib, ularning dunyoqarashlari, axloqiy sifatleri, xarakteri shakllanib boradi.

Fanni o'qish orqali o'quvchilar kundalik hayotida zarur bo'ladigan uy-ro'zg'or ishlarini texnologiya asosida bajarishni o'rganadi, qobiliyat va qiziqishga mos kasb-hunar tanlaydi, oila byudjetiga hissa qo'shadi, bo'sh vaqtdan unumli foydalanadi, o'z galar mehnatini qadrlashga hamda o'z mehnatidan zavqlanishga odatlanadi, ustoz-shogird an'analari ahamiyatini, milliy urf-odatlar, qadriyatlarini qadrlashni, hunarli kishining rizqi butun bo'lishini tushunib yetadi.

Ш.Абдушукурова		
Y.Y.Jamilov N.Z.Namozova	О'quvchilarda texnik konstruksiyalash kompetensiyalarini shakllantirishda texnologiya fanining o'rni	210
Y.Y.Jamilov D.V.Ostonova	О'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'rni	212
A.N.Murtazoyev D.B.Norova	Texnologiya darslarida "gazlamaga ishlov berish texnologiyasi" bo'limida ishlab chiqarish texnologiyasini o'qitish metodikasi	215
A.N.Murtazoyev S.Saidova	Texnologiya darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	218
<b>4-ШЎЪБА. УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МЕХНАТ ВА КАСБ ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ</b>		
С.Х.Холияров	Инновацион технологиялари асосида умумтехника фанларини ўқитиш самарадорлигини ошириш	221
О.Н.Мухидова	Uzluksiz ta'lim tizimida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini shakllantirish	222
Б.Э.Қодиров	Ўқувчиларни касб-хунарга йўллашда тўғарак машғулотларининг ўрни	225
A.A.Turayev, R.Jumayeva	Uzluksiz ta'lim tizimida rivojlantirishda ilg'or xorijiy davlatlarning innovasion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish	227
M.X.Shomirzayev, O.Sh.Tursunbayeva.	Mehnat ta'limi ("texnologiya") fani o'qituvchilarning texnologik tayyorgarligini takomillashtirish	230
М.Мадримова.	Ўқувчилар шахсининг гуруҳда ривожланиш жараёни	232
К.Э.Онаркулов, О.Қ.Дехқонова, Ф.К.Юсупова.	Умумий ўрта таълим мактабларида технология фанини ўқитиш самарадорлигини оширишда физика фанинининг ўрни	235
М.Н.Каримова.	Махсус фанларни ўқитишда шахсга йўналтирилган таълим технологиясидан фойдаланиш	237
X.B.Muxamedova, Sh.Qurbonqulova	Umumta'lim maktablarida texnologiya fanida o'quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish	241
Г.Р.Остонова	Тасвирий санъат фани орқали мактаб ўқувчиларни касб – хунарга йўналтириш	243
A.Ismatov	О'quvchilarni o'quv faoliyati jarayonida kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning omillari	247
Ф.Х.Мукумова,	Пазандачилик ишларини ўрганишда дидактик	248